

**KICHIK MAKTAB YOSHIDA SHAXSLARARO  
MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY  
ASOSLARI**

**Xolmuratova Gavhar Karim qizi**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda shaxslararo munosabatlarning shakllanish jarayonini, uning nazariy asoslarini va amaliy metodlarini tahlil qiladi. Maqolada yosh avlodning ijtimoiylashuvi, muloqot va hamkorlik ko‘nikmalari rivojlanishining asosiy tamoyillari, shuningdek, pedagogik ta’sir vositalari ko‘rib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** Shaxslararo munosabat, muloqot, tarbiya, metod, texnologiya.

### **KIRISH**

Kichik maktab yoshi – shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishning eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu davrda o‘quvchilarning shaxsiy identiteti shakllana boshlaydi va ularning jamiyatga moslashuvi uchun shaxslararo munosabatlar muhim omilga aylanadi. Maktab muhitida doimiy muloqot, o‘yin va guruh faoliyatları orqali o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalari rivojlanib, ularning kelajakdagi o‘zaro hamkorligi uchun mustahkam poydevor yaratiladi. Shu bois, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda shaxslararo munosabatlarni shakllantirishning nazariy asoslarini chuqur o‘rganish va amaliy usullarni ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kichik yoshdagagi bolalar o‘zaro muloqot va hamkorlik jarayonida o‘yin, hikoya, san’at va jamoaviy mashg‘ulotlar orqali ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Yunon faylasufi Platonning “o‘zlikni anglash” nazariyasini va zamonaviy psixologik yondashuvlar, shuningdek, yosh avlodning hissiy dunyosi va ijtimoiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda, kichik maktab yoshi ta’limida shaxslararo munosabatlarni mustahkamlashda interaktiv va amaliy metodlarning ahamiyati ta’kidlanadi. Shu yo‘nalishda, adabiyotlarda pedagogik metodlar, o‘yin asosidagi o‘quv jarayonlari va guruh faoliyati usullari keng yoritilgan.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Shaxslararo muloqot faqat insonlarga xos bo‘lgan jarayondir. Kishilarda faoliyat jarayonida bir - birlariga nimanidir aytish istagi tug‘iladi.

Shaxslararo muloqot - odamlar o‘rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog‘lanishlar rivojlanishining ko‘p qirrali jarayonidir. Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat ko‘rsatuvchilar o‘rtasida axborot ayrboshlashni o‘z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ jihatni hisobga olinadi. Kishilar munosabatga kirishishda avvalo tilga murojaatqiladilar.

Shaxslararo muloqotning yana bir jihatni munosabatga kirishuvchilarning o‘zaro birgalikdagi harakati - nutq jarayonida faqat so‘zlar bilan emas, balki harakatlar bilan ham ayrboshlashdan iborat. Masalan, munosabatga kirishar ekanmiz, u bizni qoniqtirsa imo-ishora bilan muloqotda bo‘lamiz. Munosabatning keyingi jihatni muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlaridir. Masalan, biz bir kishi bilan muloqotga kirishishdan avval uni hurmat qilib yoki mensimasdan munosabatda bo‘lamiz. Demak, muloqot jarayonida kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (o‘zaro birgalikda harakat qilish) va perceptiv (o‘zaro birgalikda) idrok etish amalga oshiriladi.

Shaxslararo muloqot qonuniyatlarini bilish hamda uni o‘rnatish malakalari va qobiliyatlarini rivojlantirish har bir kishi uchun muhimdir.

Har bir kishining o‘z “Men”i atrofdagilar bilan bo‘ladigan muloqot jarayonida shakllanadi, Shaxsning hayot yo‘llari avval oilada, bog‘cha, mакtab, institut, ishxona, keksalar orasida, ya’ni guruh va jamoalarda rivojlanadi. Bizning yuksak ma’naviy ehtiyojlarimizdan biri - bu muloqotga bo‘lgan ehtiyojdir. Muloqotga bo‘lgan ehtiyojimiz qondirilmasa, ongimiz ham rivojlanmaydi. Shuning uchun biz doimo muloqotga bo‘lgan ehtiyojlarimizni qondirishimiz lozim. Kimlar bilandir bo‘lgan muloqotdan qoniqish hosil qilamiz, lekin ayrim hollarda esa biz qoniqmaslikni his qilamiz.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning shaxslararo munosabatlarini o‘rganishda quyidagi metodik yondashuvlar qo‘llaniladi:

- Interaktiv o‘yinlar va guruh mashg‘ulotlari: O‘quvchilar orasida muloqot va hamkorlikni kuchaytirish, ularning o‘zaro munosabatlarini ijobiy tomonga yo‘naltirishda o‘yin metodlari samarali vosita hisoblanadi.
- Rol o‘ynash va dramatizatsiya: Bolalarning hissiyotlarini ifoda etish, o‘zaro tushunishni rivojlantirish va ijtimoiy vaziyatlarga moslashuvchanlikni oshirishda dramatik usullar qo‘llaniladi.
- Guruhli muhokama va interaktiv metodlar: Dars jarayonida kichik guruhlarda ishslash, fikr almashish va o‘zaro bahslashish orqali o‘quvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantiriladi.
- Vizual va sensor tajriba: Rasm, grafikalar va boshqa vizual vositalar yordamida shaxslararo munosabatlarning murakkab jihatlari tushuntirib beriladi.

Empirik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga interaktiv va o'yin asosidagi metodlarni tatbiq etish ularning shaxsiy va ijtimoiy salohiyatini sezilarli darajada oshiradi.

### XULOSA VA MUNOZARA

Kichik maktab yoshi ta'limida shaxslararo munosabatlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, quyidagi jihatlar e'tiborga olinishi lozim:

1. Ijobiy o'yin muhitini yaratish: Dars jarayoniga interaktiv o'yinlar va guruh faoliyatlarini kiritish orqali o'quvchilarning o'zaro munosabatlarini mustahkamlash.

2. Rol o'ynash metodining qo'llanilishi: O'quvchilarga o'z hissiyotlarini ifoda etish va boshqalar bilan samarali muloqot qilish imkonini yaratish.

3. Vizual materiallardan foydalanish: Ta'lim jarayonida grafik, rasm va boshqa vizual vositalarni qo'llash orqali murakkab ijtimoiy tushunchalarni oddiy va tushunarli shaklda yetkazish.

4. Guruh faoliyatini rag'batlantirish: Kichik guruhlarda ishlash, fikr almashish va muhokama orqali o'quvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish.

Ushbu yondashuv maktab yoshidagi o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta'minlab, ularni kelajakda mustaqil va ijtimoiy jihatdan faol shaxslar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

### ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Ivanov P.I., Zufarova M.Y. "Umumiy psixologiya" Toshkent: O'zbekistan faylasuflari milliy jamiyati, 2018.
2. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Toshkent: O'zbekiston. 2017
3. Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi. Namangan . 2015.
4. G'oziev E.G. Ontogenet psixologiyasi - Toshkent: "Noshir", 2010.
5. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. Toshkent. 20199
6. Gamezo M.V., I.A. Domashenko. "Psixologiya atlasi" - Moskva: "Prosveshchenie" 2004 yil.